

**TA'LIM SOHASIDA MULTIMEDIA TEXNOLOGIYASIDAN
FOYDALANISHNING IMKONIYATLARINI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK
JIHATLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI QO'LLASH.**

Nishonov Mirsobit Imomboy o'g'li

*Toshkent gumanitar fanlar universiteti Aniq va gumanitar
fanlar kafedrasi stajor o'qituvchisi*

**APPLICATION OF THE PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL ASPECTS AND
SPECIFIC FEATURES OF THE POSSIBILITIES OF USING MULTIMEDIA
TECHNOLOGY IN THE FIELD OF EDUCATION.**

Nishonov Mirsobit Imomboy son

Tashkent University of Humanities Department of Exact and Humanities Trainee teacher

ANNOTATSIYA: *Ushbu ushbu maqolada ta'lim jarayonida multimedia texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik-psixologik asoslari va ularning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Multimedia vositalari — audio, video, animatsiya, grafika va interaktiv dasturlar orqali o'quv jarayonini yanada boyitish, ta'lim samaradorligini oshirish hamda o'quvchilarda mustaqil fikrlash, kreativlik, axborot bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatlari yoritilgan.*

Multimedia texnologiyalarining o'quvchilar bilish jarayoniga ta'siri, ya'ni diqqatni jamlash, eslab qolish, motivatsiya va emotsional ta'sir darajalariga ko'ra afzalliklari tahlil etilgan. Shuningdek, o'qituvchilar tomonidan dars jarayonida multimedia vositalaridan samarali foydalanish metodlari, didaktik materiallar yaratish prinsiplari va ularni ta'lim standartlariga moslashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Natijalardan ko'rinadiki, multimedia texnologiyalarini pedagogik-psixologik yondashuvlar asosida qo'llash ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning faolligini kuchaytirish hamda individual ta'lim yo'llarini tashkil etishda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu yondashuv zamonaviy ta'lim tizimida interaktiv o'qitish usullarini keng joriy etishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *Multimedium, videofilm, yettita monoxromatik, CD ROM, DVD, DVD ROM, Power Point, Macromedia Flash, Adobe Premiye, Media Player, CD Player, arxivlashtirishda, abstrakt tafakkur.*

ANNOTATION: *This article analyzes the pedagogical and psychological foundations of the use of multimedia technologies in the educational process and their specific features. The possibilities of further enriching the educational process, increasing the effectiveness of education, and forming independent thinking, creativity, and information-working competencies in students through multimedia tools - audio, video, animation, graphics, and interactive programs are highlighted.*

The impact of multimedia technologies on the cognitive process of students, namely, their advantages in terms of concentration, memorization, motivation and emotional impact, was analyzed. Also, recommendations were given on methods of effective use of multimedia tools by teachers in the lesson process, principles of creating didactic materials and their adaptation to educational standards.

The results show that the use of multimedia technologies based on pedagogical and psychological approaches is an effective tool for improving the quality of education, increasing student activity, and organizing individual learning paths. This approach serves to widely introduce interactive teaching methods in the modern education system.

Keywords: *Multimedia, video, seven monochromes, CD ROM, DVD, DVD ROM, Power Point, Macromedia Flash, Adobe Premiere, Media Player, CD Player, archiving, abstract thinking.*

Ushbu maqolaning maqsadlaridan biri - maktabga tayyorlov guruhi bolalarida kompyuter savodxonligini shakllantirish, axborot va multimedia texnologiyasi, internet bo'yicha ilk tushunchalar hamda tasavvurlar berish metodikasiga qaratilgan. Shulardan dastlabkisi multimedia texnologiyasi hisoblanadi.

Axborot texnologiyalarining tezkorlik bilan rivojlanishi - natijasida multimedia texnologiyasi yaratildi va turli sohalarda qo'llanila boshlandi. MTMlari ta'lim-tarbiya jarayonida multimedia texnologiyasidan foydalanishni amalga oshirish uchun avvalo, multimedia to'g'risida asosiy tushunchalarni qarab chiqamiz.

1. Multimedia atamasining lug'aviy ma'nosi [multimedium] (yoki ingl. multimedia) kabi ikkita so'z yig'indisidan tashkil topgan bo'lib, multi - ko'p, media - muhit ma'nosini anglatadi. Atama ilmiy va o'quv adabiyotlarida "ko'p vositalilik, multimedia muhiti, ko'p qatlamli muhit, multimedia - bittadan ko'p bo'lgan mediadir, maxsulot tashuvchi vosita, malumot tashuvchi vosita" kabi talqin qilinib kelinmoqda, hatto, ayrim adabiyotlarda "hozirgacha multimediani aniq ta'rifi mavjud emasligi" ham e'tirof etilgan.

Horzirgi davrda multimedia atamasi ko'p qirrali bo'lib, turli xil tushunchalarni ifodalashga tatbiq etilib kelinmoqda. Masalan, multimedia texnologiyasi; multimedia maxsuloti; multimediali kompyuter; multimedia dasturi; multimedia didaktik vositasi va boshqalar shular jumlasidandir.

2. "Multimedia" tushunchasining adabiyotlarda yoritilgan bir nechta tarifini keltiramiz: "Multimedia - deganda turli shakldagi ma'lumotlarni qayta ishlovchi vositalar majmuasi tushuniladi", "Multimedia - bir vaqtning o'zida turli ko'rinishdagi axborotlardan: matn, grafika, tovush va boshqalardan foydalanishni ko'zda tutgan foydalanuvchi interfeysining animasiyasi", "Multimedia - bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari asosida axborotning an'anaviy va original turlari asosida o'quv materiallarini o'quvchilarga yetkazib berishning mujassamlashgan holdagi ko'rinishidir", "Multimedia - gurkirab rivojlanayotgan zamonaviy axborotlar texnologiyasidir", "Multimedia - bu maxsus texnologiya bo'lib, dasturiy va texnik moddiy ta'minot asosida kompyuterda bir vaqtning

o'zida matnli, tasviriy axborotni tovushli va harakatli holda (hattoki videofilm holatida) ifodalash imkoniyatidir", Multimedia - tasvirli ma'lumotlar bilan ishlashga qodir bo'lgan vosita hisoblanadi", "Odatda multimedia deganda turli shakldagi ma'lumotlarni qayta ishlovchi vositalar majmuasi tushuniladi", "Multimedia - kompyuter tizimida matn, tovush, videotasvirni va turli animasiyalarni mujassamlashtirish imkonini beruvchi zamonaviy axborotlar texnologiyasidir".

3. Multimedyaning mazmunini tasavvur etish va tushunish uchun, birinchi navbatda quyidagi ikkita taqqoslashni keltirish maqsadga muvofik:

Birinchi taqqoslash. Malumki dexqonchilik maxsulotlari temir yo'l transporti vagonlariga ortilib markaziy shaharlarga junatiladi. Buning uchun, birinchi galda maxsulotlar, masalan, kartoshka, piyoz, sabzi, karam, turp, sholg'om, qovun, tarvuz va boshqalarga ishlov berilib (saralanib va tozalanib) omborxonalarda to'planadi, sungra vagonlarga ortiladi.

Maxsulotni vagonga ortish ikki usulda amalga oshirilishi mumkin:

- 1) vagonga faqat bir turdagi maxsulot, masalan, faqat kartoshka ortilishi mumkin;
- 2) vagonga bir necha turdagi mahsulot - kartoshka, piyoz, karam, sabzi, turp ortilishi mumkin.

Shunday qilib, birinchi holda bitta vagonda bir turdagi maxsulot, ikkinchi holda esa bitta vagonda besh turdagi maxsulot junatiladi.

b) iste'molchi ishlov berilgan va omborxonada tuplangan maxsulotni shu yerning o'zida yoki mo'ljalga yetib kelgan joyda iste'mol qilishi mumkin.

Demak, birinchi holda vagondagi maxsulotni bir tarkibli maxsulot, ikkinchi holda esa ko'p tarkibli maxsulotlar majmuasi deb qarashimiz mumkin.

Ikkinchi taqqoslash. Maktabgacha ta'lim muassasa tarbiyachisi boshqa shahardagi hamkasbiga ish yuzasidan xat yuborishi bilan bog'liq hol. Xat yuborish uchun dastlab xat matnini, fotosuratini, ishga doir bitta jadval bitta sxema tayyorlab ularga ishlov beradi. Xatni yuborish esa ikki usulda amalga oshiriladi.

1) Bitta konvertida odatdagidek faqat bitta xatni o'zini joylashtirib yuboradi. Bu bir turdagi maxsulot yuborishga uxshash bo'ladi.

2) Bitta konvertida xat matnini, o'zining fotosuratini, tayyorlagan jadval va sxemasini joylashtirib yuboradi. Bu bitta vagonda ko'p turdagi maxsulot yuborishga uxshaydi. Bunda konvert ichida ma'lumotlar majmuasini yuborgan hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan taqqoslashlardagi misollarni axborotlar texnologiyasiga tatbiq etib ko'ramiz. Ma'lumki, multimediali axborot tizimiga matn, jadvallar, grafika, nutq, sxema, musiqa va boshqalar kiradi. Ushbu axborotlarni foydalanuvchilarga yuqoridagi tartibda ikki usulda uzatish mumkin.

1) Har bir axborotni, masalan, matnni ma'lum bir masofadagi foydalaiuvchiga yoki shu joyning o'zidagi foydalanuvchiga bitta diskga bir o'zini joylab uzatish mumkin (odatdagi axborot).

2) Axborotning bir nechta turlarini - matn, grafika, sxema, tasvir, musiqa va

boshqalarni kompyuter xotirasida saqlab, ishlov berib, barchasini bitta diskga jamlab ma'lum bir masofadagi foydalanuvchiga yoki u joyning o'zidagi foydalanuvchiga uzatish mumkin (ikkinchi hol multimediali axborotning mazmunini bildiradi).

Shunday qilib, multimedia mazmunidan kelib chiqqan holda multimedia tushunchasining quyidagi ta'rifini keltirish mumkin: "Multimedia - bir nechta axborot turlarini kompyuterda ishlov berish natijasida hosil qilingan va bitta diskga jamlangan axborot yig'indisidir".

Multimedianting mazmuniga yanada oydinlik kiritish maqsadida, uni oq yorug'lik nuri bilan taqqoslaymiz:

1. Oq yorug'lik nuri murakkab nur bo'lib, yettita monoxromatik (qizil, sariq, yashil, havo rang, kuk, binafsha) nurlar yig'indisidan iborat.

2. Xuddi shunga uxshash to'la multimediali axborot ham yettita tashkil etuvchilar (matn, tasvir, jadvallar, grafika, audio, video, animasiya) yig'indisidan iborat bo'ladi.

4. Multimedianting shakllanish bosqichlari, uning asosiy texnik taminoti (vositasi) bo'lgan kompyuterning rivojlanishi bilan bog'liq. Multimedianting tashkil etuvchilari va ularning rivojlanish bosqichlari quydagilardir:

Matn shaklidagi tashkil etuvchisi. Dastlab odamlar yozuvlarni toshga o'yib yozganlar, qog'oz ixtiro qilingach parranda pati, qalam va ruchkalardan foydalanib yozuv ishlarini amalga oshirganlar. Keyinchalik yozuv mashinasi ixtiro etilgach, uzoq yillar mobaynida ulardan foydalanib kelindi.

Audio shaklidagi tashkil etuvchilariga tovush va uni yozish, (ovoz yozish, sharxlash) va musiqiy ta'minotlar kiradi. Shulardan, dastlabkisi - tovushli XIX-asr boshlarida gram plastinkalarda, keyinchalik magnitofonlar uchun magnit lentalariga yozila boshlandi.

Multimedia vositalariga multimedia maxsulotini yaratishda foydalanadigan uskunalar (yoki jihozlar) dasturlar va amalda fodalanihga mo'ljallangan materiallar kiradi. Multimedia vositalarini tasavvur etish uchun ularni uskunaviy, dasturiy va amaliy vositalar kabi uch turga bo'lamiz.

1. Uskunaviy (texnikaviy) vositalari qatoriga audio plata, video plata, kompakt disk (CD ROM, DVD, DVD ROM tashqi uskuna)lar, videokamera platalari, video kiritish va chiqarish, tovush kiritish va chiqarish qurilmalari va boshqalar kiradi.

2. Dasturiy vositalarga Power Point, Macromedia Flash, Adobe Premiyere, Media Player, CD Player va boshqa dasturlarni kiritish mumkin.

3. Amaliy vositalarga turli xil jadvallar, ma'lumotnomalar, elektron darsliklar, taqdimotlar, slaydlar, kompyuter o'yinlari va boshqalar kiradi.

Multimedia texnologiyasi. Multimedia texnologiyasi bilan tanishishdan oldin takkoshlash maqsadida meva kuritish texnologiyasini ko'rib chiqamiz. Odatda, meva quritish texnologiyasining jarayoni quyidagicha kechadi:

1. Mevalar saralab teriladi (boshlang'ich ashyo);

2. Quritish oldidan texnologik ishlov beriladi (saralash, tozalash, maxsus eritmada ishlov berish);

3. Quritish qurilmasiga joylashtiriladi va quritiladi;

4. Kuritilgan maxsulot iste'molchilarga junatiladi.

Multimedia texnologiyasida ham ma'lum bir texnologik jarayon amalga oshiriladi. Bu jarayonlar quyidagilardan iborat:

1. Dastlabki yakka tartibdagi axborot(ma'lumot)lar tanlanadi;

2. Ular bitta diskga jamlanadi va kompyuterda texnologik ishlov beriladi;

3. Yangi multimedia axborotlar majmuasi hosil qilinadi;

4. Saqlanadi;

5. Foydalanuvchilarga taqdimetiladi.

Demak, axborot texnologiyasi moddiy maxsulotlar ishlab chiqarish texnologiyasiga uxshash ma'lumotlar yoki boshlang'ich axborotni yig'ish, ma'lumotlarni qayta ishlash, axborot olish, bu axborot asosida qarorlar qabul qilish uchun foydalanuvchiga uzatish jarayonidan iborat.

Shunday qilib, yakka tartibdagi axborotlar - nutq, matn, tasvir, grafika, musiqa va animasiya samaralari kompyuterda ishlov berilishi natijasida bitta diskda joylashtiriladi va ushbu texnologik jarayon natijasida multimediali axborot texnologiyasi shakllanadi.

Multimedia texnologiyasining qo'llanish soxalari. Hozirgi davrda multimedia texnologiyasidan ko'p sohalarida, jumladan, moliya, iqtisodiyot, fan, ta'lim, madaniyat, ijtimoiy sohalar, maishiy sohalar, reklama, kompyuter o'yinlarida foydalanilmoqda. Shuningdek, firmalarda taqdimot va mahsulotlarni reklama qilishda foydalaniladi. Ayniqsa, ko'rgazma va yarmarka zallarida, sayohat byurosi, aeroport va temir yo'l vokzallarining zallarida reklama axborotlari to'g'risida keng kulamda ma'lumot beriladi. Shuningdek, ishlab chiqarishda, turli muassasalarda, xizmat ko'rsatish shaxobchalarida, arxivlashtirishda, muzeylarda va boshqa joylarda qo'llaniladi.

Ta'lim sohasida multimedia texnologiyasidan foydalanish dastlab umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik lisey, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlari uchun multimediali elektron ta'lim manbalari yaratishdan boshlangan. Multimediali ta'lim manbalaridan foydalanib ma'ruza, amaliy, laboratoriya ishlari, mustaqil ishlar va hokazolar amalga oshiriladi.

Multimediali elektron ta'lim manbalari elektron darsliklarda, qo'llanmalarda, ishlanmalarda, taqdimotlarda, slaydlarda o'z aksini topgan va mujassamlangan. Internet ashyolari, masofali o'qitish manbalari, elektron kutubxonalar, bilimlar ombori ham ta'lim manbalariga kiradi. Multimediali elektron darsliklar, odatdagi an'anaviy darsliklarga nisbatan qator afzalliklarga ega: 1) odatdagi darsliklarda biron mavzuga tegishli materiallar matni va estetik ko'rinishdagi bitta rasm beriladi; 2) multimediali elektron darsliklarda esa shu mavzuga tegishli material matni va uni sharxlab boruvchi diktorning ovozi, mavzuga tegishli animasiya berilgan bir nechta rasm, o'sha davrga tegishli kichik kinofilm lavhasi va musiqa qo'shib beriladi.

MTMlari uchun yaratilgan elektron va odatdagi - ta'lim manbalari. Bolalar uchun qo'llanma yoki darsik sifatida - kompyuter xotirasiga kiritilgan ma'lumotlar va o'quv

materiallari, tarbiyachi (pedagog) uchun multimedia texnologiyasiga oid pedagogik, ilmiy-metodik adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, tavsiyalar va ularning elektron varianti ta'lim manbalari hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan multimediali elektron ta'lim manbalari va kasitalaridan tashqari internet ashyolari va masofali ta'lim materiallari ham o'ziga xos ta'lim manbalari bo'la oladi.

Farzandlarimizning shakllanishi, dunyoqarashlari kengayishida bog'cha iariyasi muhimdir. Bog'cha dasturiga ko'ra, bola vaqtida ovqatlanadi, o'ynaydi, dam oladi. Bu tartib bola salomatligi uchun ham muhimdir. Bog'chada bola ta'limining boshlang'ich dasturini bosqichma-bosqich o'rgana boradi. O'qishni, yozishni, matematik-mantiqiy amallar bajarishni bilib oladi. U shu yerda Vatanni taniydi, yuragida tabiat va jamiyatga mehirlanish hissi uyg'onadi.

Maktabgacha ta'lim maskanlarida tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish, pedagoglarning kasb malakasi va mahoratini oshirish, tarbiyaviy jarayonga zamonaviy pedagogik va kompyuter texnologiyalarni olib kirish muhim dolzarb masalalardandir. Pedagoglarning kasb malakasi va mahoratini oshirishda o'qishni, yozishni matematik-mantiqiy amallar bajarishni o'rganishning didaktik ta'minotlarini yaratish usullarini bilib olish lozim.

Aqilni chiniqtirish, o'qishni o'rganish, mantiqiy amallarni bajarish kabi bilimlar o'z mazmuniga quyidagilarni olishi lozim deb o'ylamiz: aqilni chiniqtirish maqsadida turli o'yinlar (masalan, shakllarni tanlash, ranglash, shakllarni tartiblari va boshqalar). O'qishni o'rganish maqsadida turli xil didaktik vositalar (masalan, rasmdagi hayvon, jism, narsalarni nomini topish kabi), turli grafik muharrirlar yordamida "Yer sharini bolalarga beramiz!", bolalar qiziqishi va ijodiy yondashishi bilan "Mening shahrim va mening koinatim", "tinchlik va urush", "Yil fasillari va bayramlar" mavzulariga oid rasmlarni yaratish mumkin. Bunday didaktik vositalardan xaftasiga ikki – uch (0,5 soatdan) foydalanish tavsiya etiladi va rasm, tarix, tabiatshunoslik, o'qish va matematika fanlarini o'rganishda o'z aksini topadi. Bunday darslarda bolalar kompyuterda ishlashning eng oddiy ko'nikmalarini egallaydilar.

Multimedia texnologiyasining pedagogik-psixologik jihatlari va o'ziga xos xususiyatlari. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi pedagogika fanining muhim sohasi bo'lib, tarbiyaning yosh bilan bog'liq bo'lgan jihatlarni ochib beradi. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi maxsus va yosh pedagogikasi bilan umumiy ilmiy-nazariy asoslarga ega. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi ma'lum bir darajada MTMning ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishga karatilgan bulib, olimlar, pedagoglar, tadqiqotchilarning ishlari natijasida shakllandi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berish bilish nazariyasiga asoslanadi, jumladan, uning "jonli mushohadadan abstrakt tafakkurga va undan amaliyotga" degan qonunini MTMning kompyuterli ta'lim jarayoniga ham qo'llash mumkin. Jonli mushohada MTM tarbiyalanuvchilariga namoyish qilinadigan vositalarga didaktik materiallar, harflar, rasmlar, chizmalar kabilarni kiritish mumkin. Ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish

bolalarga turlicha psixologik ta'sir ko'rsatadi. Masalan, qog'ozda yozilgan yoki kartondan kesib tayyorlangan "A" harfi tarbiyalanuvchilarga ko'rsatilsa (statik holat), ularga ma'lum bir psixologik ta'sir etadi, monitor ekranida animasiyadan foydalanilgan, multimedia texnologiyasi asosida "A" harfi ko'rsatilsa (dinamik holat), tarbiyalanuvchilarga sodda ko'rinishda psixologik ta'sir etadi. Shuningdek, bolalarga qog'ozda chizilgan archa rasmi ko'rsatilsa (statik holat), ularga oddiy psixologik ta'sir etadi, agar monitor ekranida animasiya bilan berilgan (harakatlangan va jilolanib turgan) multimediali rasm ko'rsatilsa, ularga kengroq ko'rinishda psixologik ta'sir (samarali) etadi.

MTMlarida yuqoridagi fikrdan kelib chiqib, "jonli kuzatish" bolalarning fikrlashini rivojlanishiga olib keladi. Masalan, multimediali slaydlarda predmetlar turli (biri oq, biri qizil, biri yashil) ranglarda beriladi. Yosh bolalar monitor ekranida ularni ko'rishi bilanoq - ranglar to'g'risida fikr yurita boshlaydilar.

Bola bilish nazariyasining "abstrakt tafakkur" bosqichida monitor ekranida ko'rgan materiallariga e'tibor qaratadi, mulohaza yurita boshlaydi va fikrlaydi. "Jonli kuzatish", "abstrakt tafakkur"dan keyingi bosqich "amaliyotga tatbiq etish"dan iborat. Kompyuterli ta'limni amaliyotga tatbiq etish, MTM tarbiyalanuvchilari tomonidan o'rganiladigan materiallarni kompyuterda bajartirilishi hamda texnika va ishlab chiqarishda tatbig'i asosida amalga oshiriladi.

Multimediali kompyuter texnologiyasi MTMlari ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etilayotganligiga ko'p vaqt bo'lmaganligi sababli, hozirgi kunda uning pedagogik-psixologik jihatlari, tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik jihatlari. Pedagogik nuqtai nazaridan, multimedia texnologiyasining MTMlari ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbig'i, ularga kompyuter asosida yangicha texnologik yondashuv hisoblanadi. Shuning uchun, multimediali kompyuter texnologiyasining o'ziga xos belgilari, xususiyatlari va tamoyillari mavjud: asosiy belgilari - texnik vositalardan foydalanish, tarbiyalanuvchilarning bilimini aniqlash mezonini ishlab chiqish, ta'lim samaradorligini oshirish, monitor ekraniga qarab va undagi materiallardan foydalanib bilim olishdan iborat. Multimediali kompyuter texnologiyasidan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish bir vaqtning o'zida bolalarning kompyuter savodxonligini shakllanishiga ham olib keladi.

Psixologik jixatlari. Bolalarning yoshini va fikrlash darajasini, ta'lim materialini xotirasida saqdash imkoniyatini hisobga olish, kompyuter bilan ishlaganda ko'z toliqishining oldini olish, bolalarning xotirasini rivojlantirish, diqqatini barqarorlashtirish, ta'lim materiallariga qiziqishini orttirish, xis-hayajonli hissiyot uyg'otish, kompyuterda ishlash qobiliyatini o'stirish kabilar ham multimedia texnologiyasini ta'limda qo'llanishning psixologik jihatlari tashkil etadi. Monitor ekranida tasvirni ko'rganda hamda tovushni eshitayotganda bola miyasining ikkala yarim shari bir vaqtda ishlaydi va obyekt obrazi bir vaqtda qabul qilib olinadi.

Animasiyali ma'lumotlarning insonga ta'siri katta bo'lib, undan MTMLari ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish bolalar diqqatini ko'proq jalb qilish xususiyatiga ega. Multimediali ta'lim bir vaqtning o'zida ham ko'rish, ham eshitish orqali bilim olish uchun samarali ekanligi hayotiy tajribada allaqachon isbotlangan. Zero, xalqimizda "yuz marta eshitgandan, bir marta ko'rgan yaxshi" degan maqol bor. Psixologiyada ham bir vaqtning o'zida bolaning ham ko'rish, ham eshitish organlaridan foydalanish orqali bilim berish, ular tomonidan materiallarni o'zlashtirishning yuqori bo'lishi uchun kafolatli ekanligi ta'kidlanadi. Bu borada akademik S.S.G'ulomov va boshkdlar quyidagilarni ta'kidlaydi: "Agar o'quvchilar berilayotgan materiallarni ko'rish (video) asosida qabul qilsa, axborotning xotirada saqlab qolinishi 25-30 % ga oshadi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishida mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqdab qolish 75 % ga ortadi".

Psixologlarning ta'kidlashicha, bolalar asbob-uskunalariga, texnik qurilma va transport vositalarining modellariga, o'yinchoqdarga juda qizikuvchan bo'ladi. Shu bilan birgalikda, o'rganilayotgan o'quv materialiga bo'lgan qiziqishlarini ham orttiradi. Bolalarning bilim olishlarga ishtiyoqlari kuchayadi, fikrlash doiralari oshadi.

Asosiy tamoyili, kafolatlangan yakuniy natija, ta'limning mahsuldorligi, to'g'ri va teskari aloqaning mavjudligi, ta'lim maqsadining aniq shakllanishidan iborat. Shuningdek, pedagogik tajriba natijalari multimedia vositalaridan MTMLari ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishning didaktik tamoyillari qatoriga: dasturlashtirish, ilmiylik, moslik, jadallik, ta'lim maqsadlarining o'zaro bog'liqligi, ko'rgazmalilik qobiliyatini o'stirish kabilar ham multimedia texnologiyasini ta'limda qo'llanishning psixologik jihatlarini tashkil etadi. Monitor ekranida tasvirni ko'rganda hamda tovushni eshitayotganda bola miyasining ikkala yarim shari bir vaqtda ishlaydi va obyekt obrazi bir vaqtda qabul qilib olinadi.

Adabiyotlar

1. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. - T.: Fan, 2009. -145 b.
2. Abduqodirov A.A., Begmatova N.X,- Maktabgacha ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubi (o'quv-uslubiy qo'llanma). - Qarshi: Nasaf, 2011. - 257 b.
3. Yu.Axmedova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zlashtirish darajasini aniqlash va tahlil qilish. // Bola shaxsini rivojlantirishning dolzarb muammolari mavzusidagi xalqaro anjuman. - T.: 2008. - 204 b.
4. Adilova S. Multimedia va ularni ta'lim jarayonida qo'llash. // Pedagogik ta'lim, 2001. № 2. - B. 20-21.
5. Boqiyev R., Mehmonov R., Xusniddinova D. Bolalar bog'chasida boshlang'ich kompyuter savodxonligi. - Toshkent: Iqtisod-moliya, 2010. -112 b.